

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

D.F. Raxmatullayev

MUSIQA NAZARIYASI

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlari
3522102 — «Ovoz yozish texnik texnologii» yo'nalishi o'quvchilari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Faylasuflar» nashriyoti
Toshkent — 2014

UO‘K: 78(075)
KBK: 85.31
P 30

Raxmatullayev D.F.

P 30 Musiqa nazariyasi o‘quv qo‘llanma: kasb-hunar kollejlari uchun/ D.F. Raxmatullayev; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi: O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi. — Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2014. — 14 b.

UO‘K: 78(075)
KBK: 85.31

Ushbu o‘quv qo‘llanma Respublika Televideniya va radio kasb-hunar kolleji o‘quvchilari uchun, asosan «Ovoz operatori» bo‘limi o‘quvchilariga mo‘ljallangan. «Musiqa nazariyasi», «Musiqa akustikasi», «Fonogramma va texnik tahlil» qo‘llanmalari radiodagi amaliyot, keyinchalik ish faoliyatida muntazam to‘qnash keladigan jarayonlar bilan bog‘liq. Shuningdek, «Tasvirchilar», «Tasvir montajchilari» va «Maxsus yoritish» bo‘limlari o‘quvchilari ham «Ovoz operatorlari» bilan doimiy hamkorlikda bo‘ladilar. Tayyor mahsulotni ovozlashtirishda yoki tasvirga olishda bu olgan bilimlari doim qo‘llaniladi. Maxsus yoki umumkasbiy fanlar qatorida bu soha bo‘yicha o‘quvchilarga birdek ta‘lim berishda o‘quv qo‘llanmadan unumli foydalanish mumkin.

TAQRIZCHILAR:


O.F.Erqulov — Respublika televideniya va radio kasb-hunar kolleji o‘quv ishlari bo‘yicha direktor muovini,

Q. Mamirov — O‘zbekiston davlat konservatoriyasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor.

KIRISH

Ko'p asrlardan beri o'zbek xalqi o'z milliy musiqa merosini avaylab asrab kelmoqda. Har bir sohada bo'lganidek xalq ijodiyoti, shoirlar ijodi, musiqachilar san'ati hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi radio efiri ish faoliyatini boshlaganida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor Karim Abdullayev bosh musiqa muharriri vazifasida ishlagan. Radiodagi ish faoliyati bilan birgalikda u birinchi bor umumta'lim maktablari uchun «Musiqa nazariyasi» darsligini yaratdi. Yurtimizda ko'p ovozli musiqaning rivojlanishi ana shunday darsliklarga bog'liq. 1989-yili kirill yozuvidan o'zbek alifbosidagi lotin yozuviga o'tishimiz natijasida o'rta maktabni bitirib litsey va maxsus kollejlarda o'qishni davom ettirayotgan o'quvchilar uchun ana shu qo'llanmalarni lotin alifbosida chop etish zarurati tug'ildi. Bu o'quv qo'llanmada musiqa nazariyasi, nota yo'li, ritm va metr, notadagi alteratsiya belgilari, asarni tonalligini ajratish va interval-lar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek o'quv qo'llanmada televideniya va radio kasb-hunar kolleji «Ovoz operatorlari» bo'limi o'quvchilari uchun yaratilib, ularning ish jarayonida amal qilnadigan ko'rsatmalar berilgan. Ana shu «Musiqa nazariyasi»da keltirilgan ma'lumotlar asosida ular televideniya va radio studiyalarida yangi asar yozish uchun kelgan jamoalarning tuzilishi, janri, joylashishiga qarab ovoz diapazoniga qanday yozuv mikrofonlari qo'yilishi, ovoz jarangi, tembri, guruhlarning joylashuvi haqida tushunchalar berilgan. Bunday yozuvlarni yozishda xoh u oddiy yoki murakkab yozuv bo'lsin, hammasini inson eshitish organlari orqali bajariladi. Biroq bir musiqiy asarni eshitishda uni ovoz uzatish jarayoni, ya'ni zanjiri ijrochi va eshituvchidir. Bu 2 oqimning bog'lovchisi ovoz operatoridir.

Ovoz operatori nafaqat musiqa tarixi va nazariyasini, sozlarni joylashuvini balki yuksak qobiliyatni eshita bilishi lozim. Bizning davrimizga kelib, ovoz uzatish bilan bog'liq bo'lgan texnika anjomlari ishlab chiqarish va ulardan unumli foydalanish fan va madaniyatda muhim o'rin tutadi.



MUSIQA TO'G'RISIDAGI TUSHUNCHALAR

Musika mazmuni bu hayot taassurotlari tovushlar orqali ifodalangan fikr va his tuyg'ulardir. Musika bayoni va ifoda etish vositalari **musika «elementlari»** deyiladi (lad, tonnallik, metr, ritm, interval).

Tovush so'zi ikki xil tushunchani bildiradi:

- 1) fizik holatdagi tovush;
- 2) sezgi holatidagi tovush;

Biror egiluvchan jism masalan, cholg'u asbobi torining tebranishi natijasida havoda uzunasiga taralgan to'liqsimon tebranishlar hosil bo'ladi. Bu holdagi tebranishlar tovush to'liqini deb ataladi. Ular tovush manbaidan har tomonga «gir» aylana tarqaladilar. Biz juda ko'p xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Lekin hamma tovushlar ham musiqada qo'llanavermaydi. Qulo'g'imiz musiqaviy tovushlar bilan shovqinli tovushlarni bir-biridan ajratadi.

Shovqinli tovushlar: qarsillash, g'ijirlash, dukillash, gumburlash, shivirlash va boshqalar. Shovqinli tovushlar aniq balandlikka ega emas, shuning uchun ham bu tovushlar musiqada qo'llanmaydi. Musiqaviy tovushning uch xil fizik xususiyati bor. Ular balandlik, qattiqlik va tembrdan iborat. Tebranish amplitudasi qancha katta bo'lsa tovush shunchalik katta eshutiladi va aksincha. «Tembr» deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr xususiyatini ifodalashda turli iboralar qo'llaniladi. Masalan: mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor. Har bir cholg'u asbobi yoki kishi ovozi o'ziga xos tembrga ega. Shu tartibda tovushlar qatori tabiiy «tovush qatori» deb ataladi.

TOVUSH QATORI, ASOSIY POG'ONALAR, OKTAVALAR

Hozirgi zamonaviy musika amaliyotiga asos qilib olingan musiqaviy sistema o'zaro muayyan balandlikka _____ bo'lgan tovushlar qatoridan iboratdir. Bu sistema tovushlarni o'z balandligiga qarab joylashishi **«tovushlar qatori»**, «tovushlar» esa uning **«pog'onasi»** deyiladi. Musiqaviy sistemaning to'liq tovushlar qatori 88 ta xilma-xil tovushlarni o'z ichiga oladi. Barcha tovushlar 16–4176 gs tebranishga ega. Ana shu tovushlar balandligini odamlar qulog'i eshita oladigan tovushlar deb ataladi. Musiqaviy sistema tovushlar qatorining asosiy pog'onalariga 7 ta mustaqil nom berilgan: Do, re, mi, fa, sol, la, si.

Tovushlar qatoridagi 7 ta asosiy pog'onaning nomi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi va shunday yo'l bilan barcha asosiy pog'onalarni, tovushlarni o'z ichiga oladi. Bir xil pog'ona (nom) dagi tovushlarning oralig'iga **«oktava»** deyiladi.

MUSIQAVIY SOZ, TEMPERATSIYALANGAN SOZ, YARIMTA VA BUTUN TON, HOSILA POG'ONALAR VA ULARNING NOMLARI

Musiqaviy sistemadagi tovushlar absolut balandligining (aniq sozlangan) o'zaro bog'lanishi **«musiqaviy soz»** deyiladi. Hozirgi zamon musiqaviy soziga birinchi oktavagacha «la» tovushlarining har sekundda 440 marta tebranishi asos qilib olingan. Hamma joyda qabul qilingan musiqaviy sistemaning har bir oktavasi 12 ta teng qismga — yarim tonlarga bo'linadi. Bu xildagi musiqaviy sozni **«temperatsiyalangan soz»** deyiladi. U oktavaga barcha yarim tonlarni teng bo'lishi bilan tabiiy tovushlar qatoridan farq qiladi. Har bir oktavaning 12 ta teng yarim tonlikka bo'linganligi sababli **yarim ton** musika sistemasi tovushlari orasidagi eng kichik oraliq hisoblanadi. 2 ta yarim tonlikdan hosil bo'lgan oraliqqa **«butun ton»** deyiladi.

Tovushlar qatorining asosiy pog'onalari orasida 2 ta yarim ton va 5 ta butun ton bor:

do	re	mi-fa	sol	lya	si	do
1 ton	1 ton	1/2 ton	1 ton	1 ton	1 ton	1/2 ton

Tovushlar qatorining har bir asosiy pog'onasini ko'tarish yoki pasaytirish mumkin. Ko'tarilgan yoki pasaytirilgan pog'onalarga mos tovushlar **«hosila pog'ona»**lar hisoblanadi. Asosiy pog'onalari yarim tonga ko'tarilganda «diyez» so'zi yarim tonga pasaytirilganda «bemol» so'zi qo'llaniladi. Ikkita yarim tonga ko'tarilsa _____ deb yuritiladi. Asosiy pog'onalarning yuqorida ko'rsatilgan tartibda ko'tarilishi yoki pasayishi **«alteratsiya belgilari»** deyiladi.

NOTA YOZUVI, CHO‘ZIMI, UNING BELGILANISHI, NOTA YO‘LI

Nota yozuvi deb, tarixan yizaga kelgan maxsus belgi — notalar vositasida tovushlarni yozish sistemasiga aytiladi. (_____) nota belgisi o‘rtasi bo‘sh yoki bo‘yalgan doirachalardan iborat bo‘ladi. Tovushlarning xilma-xil cho‘zimini bildirish uchun vertikal tayoqchalar qo‘shib yoziladi. Tovushlarni balandligini aniqlash uchun 5 ta parallel chiziqdan iborat **nota yo‘liga** joylashtiriladi. Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota cho‘zimlarining nomlari: butun, yarimtalik, chorak, nimchorak.

16 talik, shu bilan birga «Brefis» nota yo‘lining ostiga va ustiga yoziladi: $\circ$ — butun nota; $\downarrow$ — yarimtalik nota; $\downarrow$ — choraktalik nota; $\downarrow$ — nimchorak nota.

MUSIQIY KALITLAR

Hozirgi vaqtda 3 ta kalit qo‘llanilmoqda skripka kaliti (sol kaliti), bas kaliti (fa kaliti), do kaliti 2 xil bo‘ladi. Alt va tenor kaliti alt kaliti va tenor kaliti uchun qo‘llaniladi. Tenor kaliti eo fagot va trambon uchun qo‘llaniladi. Bu kalitlar qo‘shimcha chiziqlarni haddan tashqari ko‘p qo‘llamaslik uchun nota yozuvida xilma-xil kalitlardan foydalaniladi.



ALTERATSIYA BELGILARI (DIEZ, BEMOLDAN TASHQARI)

Nuqta biror tovush cho‘zimini yarim barobar uzaytiradi: $\circ$. | $\downarrow$. | $\downarrow$. |

Liga yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi nota cho‘zimlarini birlashtiruvchi egri chiziq:



Fermata tovush cho‘zimining vaqt bilan cheklanmagan uzayishini ko‘rsatuvchi belgi:



Pauzalar (pauzalarining ko‘rinishi _____)

Tovush yangrashining vaqtincha to‘xtalishi «pauzalar» deyiladi. Tovush cho‘zimlari qanday o‘lchansa pauzalar ham shunday o‘lchanadi: $\blacksquare$ $\frac{1}{2}$ $\frac{1}{4}$ $\frac{1}{8}$

Nota yozuvlarini qisqartirish belgilari:

1) nota o‘qishni murakkablashtiradigan qo‘shimcha chiziqlarni ko‘paytirmaslik uchun musiqa asarlarining ma‘lum qismida bir oktava yuqoriga yoki pastga ko‘chirish belgisi;

2) repriza qaytarish belgisi esa asarning ma‘lum bir qismini yoki oxirigacha qaytarish uchun ishlatiladi;

3) biron taktni yoki bir necha taktni ko‘p marotaba takrorlash uchun nota o‘rniga bu belgi qo‘yiladi.

4) biron muvozanatda tez va ko‘p marta almashib takrorlanadigan 2 tovush yoki tovushlar yig‘indisi «tremola» deyiladi.



MUSIQIY PAUZA VA UNING QO'LLANILISHI

Musiqiy notalar kabi «pauzalar» ham kuy hisoblanadi. Har bir kuyda ijro vaqtida turli xil sozlar o'zlari uchun yozilgan kuyni ijro etganda boshqa guruhlar pauzalar sanab o'z ijrolarini kutishadi. Pauzalar ham notalar kabi sanoqlarga bo'linmoqda.

Butun pauza	Yarimtalik pauza	Chorak pauza	Nim chorak pauza
1 i 2 i 3 i 4 i			
	1 i 2 i	1 i	
		3	7
			1

Asosan katta va kichik orkestrlarda qo'llaniladi (simfonik, kamer, xalq cholg'u orkestrida unison ya'ni bir ovoqli ijrolardan tashqari). Har bir ijro «partiyasi»da aks etgan musiqada pauzalar mavjud bo'ladi.

F – forte – kuyni asosiy boshqarishidan

P – piano – boshlangandan to oxirigacha shu belgilar ishlatiladi

FF – fortissimo – yuqori ovozdan kuyni

PP – pianissimo – pastlashtirish

Past ovozdan balandlashish uchun «kreshenda» va «diminuendo» belgilari qo'yiladi.

TOVUSHLARNI HARFIY SISTEMA BO'YICHA YOZILISHI

Musiqqa amaliyotida tovushlarni bo'g'in bilan yozishdan tashqari lotin yozuvidagi alfavit asosida harf bilan yozish usuli ham qo'llaniladi:

C.	D.	E.	F.	G.	A.	H.
do	re	mi	fa	sol	lya	si

hosila pog'onalarni yozish uchun harflarga qo'shimcha bo'g'inlar ham qo'yiladi.

Cis – do dies

fises – fa dubl dies

Dis – re bemol

geses – sol dubl bemol

Oktavalarini belgilashda harflar ustida qo'shimcha qilib raqamlar yoki chiziqchalar yoziladi. Masalan: katta oktavaning LYA tovushi katta A harfi bilan kichik oktava sol tovushi kichik d harfi bilan.

Misol: 1 – oktava do tovushi – C

3 – oktava mi tovushi – e

2 – oktava re tovushi – d

4 – oktava fa tovushi – f

Kont oktava va subkont oktavalar quyidagicha:

Kontr oktava si tovushi – H

Sub kontr oktava lya tovushi – A

P – sekin

PP – juda past

crescendo

Piano

pianissimo

(kresendo)

Bu so'zlar musiqada tovush hosil qilishni asta-sekin kuchaytirib borish mazmunini anglatadi. Notadan esa qisqartirib cress deb yoziladi.

Messo piano – notada mp belgisi ko'rsatiladi

Messo forte – notada mf tarzda ko'rsatiladi

f – forte – qattiq baland

ff – fortissimo – juda kuchli baland.

Sforsando – notada ayrim notalarni dinamik kuchaytirib boshqa tovushlardan ajratib berishni bildiradi va sf belgilar bilan kuchaytirish lozim bo'lgan notaning ustiga yoki tagiga ko'rsatiladi



Diminuendo – asta-sekin pasaytirish. Musiqada tovush kuchini asta-sekin kuchaytirib berishni bildiradi. Nota yozuvida Dim – belgisi bilan yoziladi:



RITM VA METR

O‘zaro bog‘lanib, izchil kelgan tovushlarning cho‘zilishi ritm deyiladi. Tovushlarning muayyan vaqt ichida almashishi ritmikligi turkumlar hosil qiladi. Musiqa asarining umumiy ritmikligi ana shu ritmik turkumning yig‘indisidan tarkib topadi.



Musiqa quyidagi cho‘zimlar qo‘llaniladi: 1) asosiy (juft) cho‘zim. 2) asosiy cho‘zimlarning istalgan teng qismlarida erkin bo‘lishi natijasida hosil bo‘lgan cho‘zimlar:

a) Triol – asosiy cho‘zim 2 qism o‘rniga 3 qismga bo‘linadi



b) Kvintol – asosiy cho‘zim 4 qism o‘rniga 5 qismga bo‘linadi



d) Sekstol – asosiy cho‘zim 4 qism o‘rniga 6 qismga bo‘linadi



e) Septol – 4 qism o‘rniga 7 qismga bo‘linadi



f) Duol – yoniga nuqta qo‘yilgan asosiy qismning 2 qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi



MUSIQAVIY AKSENT (ZARB).

METR, O‘LCHOV, TAKT, TEKST CHIZIG‘I, TAKTOLA

Tovushlarning harakati vaqtida ayrim hissalar urg‘usi pasayib turadi. Bu urg‘ularga **aksent** deyiladi. Aksent tushadigan hissalar **kuchli hissa**, aksent tushmaydigan hissalar **kuchsiz hissalar** deyiladi. «Kuchsiz va kuchli» hissalarining tekis almashinuvi **metr** deyiladi. «Metr» hissasining ma‘lum bir cho‘zimda ifodalanilishi **o‘lchov** deyiladi. Bu o‘lchovlar nota yozuvida ikkita raqam bilan ifodalanadi. Kalit yonida alteratsiya belgilaridan so‘ng joylashtiriladi:



Ustki raqam metrdagi hissalar sonini, quyi raqam esa mazkur o‘lchovdagi metr hissasini qanday cho‘zimda ifodalanganligini bildiradi.

Musiqaviy asarlarning bir kuchli hissadan ikkinchi bir hissagacha bo‘lgan oralig‘i **takt** deyiladi. Bu vertikal chiziq **takt** hosil qilsa bunga **taktoladi** deyiladi:



Metr – hissasining ma‘lum bir cho‘zimda ifodalanilishi **o‘lchov** deyiladi. O‘lchovlar nota yozuvida ikkita raqam bilan qo‘yilgan bo‘lib, kalit yonida alteratsiya belgilaridan so‘ng joylashtiriladi.

ODDIY METRLAR VA O'LCHOVLAR

Aksentlari har bir hissadan keyin bir tekisda takrorlanib turadigan metrlar **ikki hissali metrlar** deyiladi. Aksentlari har ikki hissadan keyin takrorlanib turadigan metrlar uch hissali metrlar deb aytiladi. Bular **oddiy o'lchovlar** deyiladi:

2 hissali o'lchov $\frac{2}{2}; \frac{2}{4}; \frac{2}{8}$

3 hissali o'lchov $\frac{3}{2}; \frac{3}{4}; \frac{3}{8}$

Bir takt ichida ritmlar turkumlansa u cho'zimlar turkumlanishi deyiladi.

MURAKKAB METR VA O'LCHOVLAR

Bir xildagi oddiy metrlarni qo'shilishi natijasida murakkab metrlar hosil bo'ladi. Murakkab metrlarni ifodalovchi barcha o'lchovlar ham **murakkab o'lchovlar** deyiladi: $\frac{4}{4}; \frac{3}{4}; \frac{2}{4}; \frac{3}{8}$. Ularning qo'llaniladigani va kam uchraydigani $\frac{4}{8}$.

6 hissali o'lchovlar: $\frac{6}{4}; \frac{6}{8}$; 9 hissali o'lchovlar: $\frac{9}{8}; \frac{9}{4}; \frac{9}{16}$; 12 hissali o'lchovlar: $\frac{12}{8}; \frac{12}{16}$.

ARALASH METRLAR VA O'LCHOVLAR


Oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida **murakkab** metrlar hosil bo'ladi. Ikki yoki bir necha har xil ko'rinishdagi oddiy metrlar birlashuvi natijasida **murakkab aralash metrlar** hosil bo'ladi. Bu xil metrlarni soddaroq qilib aralash metrlar, ularni ifodalovchi o'lchovlarni esa aralash o'lchov deb ataladi. Musiqada aralash o'lchovlar oddiy va murakkab o'lchovlarga qaraganda kam uchraydi. Bular orasida 5 va 7 o'lchov ko'p uchraydi:

$\frac{5}{4}; \frac{5}{8}; \frac{7}{4}; \frac{7}{8}$

$\frac{5}{4} = \left(\frac{2}{4} + \frac{3}{4} \right); \frac{7}{4} = \left(\frac{3}{4} + \frac{2}{4} + \frac{2}{4} \right); \frac{7}{4} = \left(\frac{2}{4} + \frac{3}{4} + \frac{2}{4} \right);$

SINKOPA

Ritm va metr aksentlarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolib, ritmdagi izchillik buzilishiga **sinkopa** deyiladi.



Sinkopalarni asosiy shakli quyidagicha bo'ladi:

a) **taktaro sinkopalar** (2 hissali va 3 hissali)

b) **takt ichidagi sinkopalar** (2 hissali va 3 hissali)

Taktaro sinkopalar bir taktdan ikkinchi bir taktga o'tganligi uchun ikkita nota bilan yoziladi



TEMP

Harakat tezligi temp (sur'at) deyiladi. Temp musiqada iroda vositalaridan biri bo'lib, musiqa asari mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Templar uchta asosiy guruhlariga bo'linadi:

Vazmin, o'rtacha, tez.

Vazmin:

Largo — keng

Lento — cho'zib

Adagio — og'ir

Crabe — juda og'ir

Tez templar:

Allego — tez

Vivo — jonliroq

Vivace — jadal

Presto — tez, oshiqib

Prestussumo — juda tez

O'rtacha templar:

Andante — osoyishta

Andantino — sal tezlashib

Moderato — o'rtacha

Sostenuto — salobatli

Allegretto moderato — o'rtacha tez

Harakatni dastlabki tempga qaytarish uchun quyidagi iboralar qo'llaniladi:

A tempo — o'z tempiga

Tempo prima — dastlabki sur'atda

Listesso tempo — o'sha sur'atda

Templarni yanada aniqroq yoritib olish uchun **metranom** deb atalgan asbobdan foydalaniladi. Melsel ixtiro qilgan metranom keng qo'llaniladigan asbob hisoblanadi.

DIRIJORLIK QOIDALARI


Xor, orkestr yoki biror boshqa yirik ansambl uchun yozilgan musiqa asari ijrochiligini boshqarish, bunda keng ma'noda, birinchidan, hisoblab turish, ya'ni takt hissalarini almashinuvini va ularning cho'zim vaqtini ko'rsatib turish, ikkinchidan, mazkur asar tempini aniqlash.

2 siltov	pastga	pastga
Pastga 2	o'ngga 3	chapga 4
Yuqoriga 4	yuqoriga 4	o'ngga 4
		yuqoriga

MUSIQIY INTERVALLAR

Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan 2 tovush qo'llanmasiga interval deyiladi. Birin-ketin eshitilgan tovush intervaliga «musiqaviy interval» deyiladi.

Intervallarning pastki tovushi interval asosi hisoblanadi. Yuqori tovush esa cho'qqisi deyiladi. Barcha garmonik ko'tariluvchi, musiqaviy interval ko'tariluvchi, yuqoriga o'qiladi. Pastlashuvchi pastga qarab o'qilib, uning yo'nalishi ham ko'rsatiladi.



Melodik interval. Garmonik interval. Yuqoriga ketuvchi interval. Pastga ketuvchi interval.


INTERVALLARNING SON VA SIFAT MIQDORI

Har bir interval 2 miqdor: son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Miqdor pog'onalar soni intervallar soni deyiladi. Bir oktava oralig'ida sodir bo'lgan interval oddiy interval deyiladi. Hammasi bo'lib 8 ta oddiy intervallar bor. Ular lotin tilida tartibli sonlar bilan nomlanadi:

- | | | |
|------------|-----------|------------|
| 1) Prima | 4) Kvanta | 7) Septima |
| 2) Sekunda | 5) Kvinta | 8) Oktava |
| 3) Tersiya | 6) Seksta | |

Intervallar sifat miqdorini belgilash uchun kichik, katta, sof, orttirilgan, kamaytirilgan degan soʻzlar ishlatiladi:

- | | |
|-------------------------------|---------------------------------|
| 1) Sof prima – 0 ton | 8) Kamaytirilgan kvanta – 3 ton |
| 2) Kichik sekunda – 0,5 ton | 9) Sof kvinta – 3,5 ton |
| 3) Katta sekunda – 1 ton | 10) Kichik seksta – 4 ton |
| 4) Kichik tersiya – 1,5 ton | 11) Katta seksta – 4,5 ton |
| 5) Katta tersiya – 2 ton | 12) Kichik septima – 5 ton |
| 6) Sof kvanta – 2,5 ton | 13) Katta septima – 5,5 ton |
| 7) Orttirilgan kvanta – 3 ton | 14) Sof oktava – 6 ton |



ORTTIRILGAN VA KAMAYTIRILGAN INTERVALLAR

Har bir diatonik interval orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunga diatonik intervalga kiradigan pogʻonalardan birini xromatik yarim tonga pasaytirish yoki koʻtarish yordami bilan erishiladi. Orttirilgan interval



intervallar sof va katta intervallardan tuziladi. Kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervallardan tuziladi, kamaytirilgan intervallar sof, kichik intervallar esa sof va kichik intervallardan tuzilishi mumkin. Faqatgina sof prima bundan istisno, barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar «xromatik intervallar» deyiladi. Son miqdori turlicha va eshitilishi 1 xilda boʻlgan intervallar «garmonik teng» intervallar deyiladi. Tarkibli intervalning sifat miqdorini belgilash uchun oddiy intervallarda ishlatiladigan sof, katta, kichik, orttirilgan degan soʻzlar qoʻllaniladi.

OHANGDOSH VA NOOHANGDOSH INTERVALLAR

Kossanas va dissanas

Diatonik shakldagi gormonik intervallar ohangdosh va noohangdosh intervallarga boʻlinishi musiqalar deb, bir-biri bilan uygʻunlashgan ohangdosh (kossanas)ning boʻlib eshitiladigan tovushlar boʻlib yangrashiga aytiladi.

Noohangdosh (dissanas) deb, bir-biri bilan uygʻunlashmagan, quloqqa keskin eshitiladigan tovushga aytiladi.

Ohangdoshlarga quyidagilar kiradi:

- Nihoyatda mukammal ohangdoshlar: sof prima, sof oktava;
- Mukammal ohangdoshlar: sof kvarta, sof kvinta;
- Nomukammal ohangdoshlar: kichik tersiya, katta tersiya, kichik seksta, katta seksta.

Noohangdosh intervallarga quyidagilar kiradi: kichik sekunda, katta sekunda, orttirilgan kvanta, kamaytirilgan kvinta, kichik septima, katta septima.

TURGʻUN TOVUSHLAR, ULARNING YECHILISHI VA LAD

Tayanch tovushlar **turgʻun tovushlar** deb yuritiladi. Chunki tayanch tovushda tugallangan kuy eshituvchida tinchlik va turgʻunlik taassurotini qoldiradi. Odatda turgʻun tovushlardan birortasi boshqalariga qaraganda keskin ajralib turadi va u asosiy tayanch rolini bajaradi. Bu xildagi tovushlar tonika deb ataladi. Boshqa tovushlar ularga nisbatan ancha kuchsiz boʻlib eshitiladi. Bular **noturgʻun tovushlar** deyiladi. Noturgʻun tovushlar turgʻun tonikalarga intiladi. Noturgʻun tovushlarning turgʻun tovushlarga oʻtishi tovushlar yechilishi deyiladi. Turgʻun va noturgʻun tonikalarni oʻzaro munosabat tizimi lad deyiladi. Biror kuy yoki asar bir ladga asoslanadi.

Tonikadan tuzilgan major uch tovushligi tonika uch tonikaligi deyiladi. Major ladi 7 tovushdan iborat. Bir tonikadan navbatdagi oktavaning boshqa bir tonikagacha joylashuviga **lad tovush qatori** yoki **gamma** deyiladi.

Gamma hosil qiladigan tovushlarga esa **pog'onalar** deyiladi. Major lading gammasida 7 ta pog'ona bor bu pog'onalar rim raqami bilan ifodalanadi:

- | | |
|-----------------------------|--------------------------------|
| 1) Tonika (T) I | 5) Dominanta (D) V |
| 2) Pastga boshlovchi ton II | 6) Sub medianta VI |
| 3) Medianta III | 7) Yuqoriga boshlovchi ton VII |
| 4) Subdominant (S) IV | 8) Oktava |

INTERVALLARNING AYLANISHI

Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashadi. Bunday holatga **intervallarning aylanishi** deymiz. Intervallarning ko'chishi ikki yo'l bilan bajariladi:

- 1) interval asosini oktava yuqoriga ko'chirish bilan;
- 2) interval cho'qqisini oktava pastga tushirish bilan.

Natijada yangi intervallar hosil bo'ladi. Qoida bo'yicha sof intervallar sof intervallarga, kichik intervallar katta intervallarga, kamaytirilgan intervallar orttirilgan intervallarga, orttirilgan intervallar kamaytirilgan intervallarga aylantiriladi.

TARKIBLI INTERVALLAR

Musiqada oddiy intervallardan tashqari oralig'i oktavadan keng intervallar ham qo'llaniladi. Oralig'i bir oktavadan keng intervallar **tarkibli intervallar** deyiladi.

Tarkibli intervallar oddiy intervallarni oktavaga qo'yish yo'li bilan hosil bo'ladi va ular quyidagicha nomlanadi:

- | | |
|-----------------------|----------------------------|
| 1) Nona (sekunda) | 5) Tersdetsima (seksta) |
| 2) Detsima (tersiya) | 6) Kvart detsima (septima) |
| 3) Undetsima (kvarta) | 7) Kvint detsima (oktava) |
| 4) Dodetsima (kvinta) | |



GARMONIK VA MELODIK MAJOR

Alteratsiya belgilariga qarab kuyni major va minorga aylantiramiz. Musiqada ko'p hollarda VI pog'onasi pasaytirilgan major ladi qo'llanilganligini uchratish mumkin. Bu xildagi major ladlari **garmolik major** deyiladi.

Akkortlar tuzilishining o'zgarishi esa kuyning garmolik jo'rligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun bu ladning nomi garmolik majordir. VI pog'onani pasaytirish lozim bo'lganda pasaytirish belgisi nota oldidan qo'yiladi va **tasodifiy belgi** deb ataladi.

Tasodifiy belgilar nota oldiga qo'yilganida o'sha ijro etilayotgan takt oralig'iga ta'sir etadi. Keyin taktdagi uchraydigan VI pog'ona notasiga ta'sir etmaydi. Bekor bo'lib keladi.

MINOR LADI. UNING POG'ONALARI VA XUSUSIYATLARI

Minor so'zi kichikroq pog'ona degan ma'noni bildiradi. **Minor ladi** deb, birin-ketin yoki bir vaqtda eshtilgan kichik yoki minor 3 tovushligidan hosil bo'lgan ladga aytiladi.

Minor uch tovushligining turg'un tovushlari tersiya bo'yicha joylashgandir. I va III pog'onalar orasi kichik tersiya, III va V pog'onalar oralig'i katta tersiya, minor uch tovushligining ikki chetidagi tovushlar sof kvinta intervalini hosil qiladi.

NOMDOSH TONALLIKLAR

Bir xil tonikadan tuzilgan major va minor tonalliklari **nomdosh tonalliklar** deyiladi. Nomdosh major va minorning tabiiy gammalari bir-biridan 3 ta pog'ona bilan farq qiladi:

- 1) III pog'ona;
- 2) VI pog'ona;
- 3) VII pog'onalaridir.

XALQ MUSIQASI LADLARI

San'atimizning boshqa sohalari kabi musiqaning rivojlanish jarayoni ham ko'p asrlar davomida turlicha joylarda turlicha shakllangan. Xalq musiqasi ijodida uchraydigan ladlar jahon musiqasi amaliyotida qabul qilingan va mustahkam o'rin egallagan ladlar ham xalq qo'shiqlarida atigi ikkita yoki uchta tovushdan tuzilgan asarlar ko'p uchraydi, xalq qo'shiqlarida (baxshilar) tovush qatori katta sekundalar va kichik tersiyalar orasida tuzilgan V pog'onali lad juda ko'p uchraydi. Bu xildagi ladlar pentatonika deyiladi. Bu asarlar asosan V pog'onadan bo'lib Osiyo xalqlari kuy qo'shiqlarida asosiy o'rinni egallaydi (Xiyot, Vetnam, Laos).

MUSIQA ASARIDA KUYNING AHAMIYATI

Tovushlarni bir ovozli shaklda, ma'lum lad va metr, hamda ritm jihatidan uyushib kelishiga kuy deyiladi. Musiqaviy mazmun jo'rsiz yakka kuy orqali ham ifodalanishi mumkin. Bir ovozli musiqa asarlari matnli (qo'shiq) va matnsiz cholg'u kuylari holida bo'lishi mumkin. Matnli kuy mazmuni ancha yorqin va tushunarli bo'ladi. Bunga bir ovozli kuylar, matn xalq qo'shiq va raqslari misol bo'la oladi. Ularning mazmuni xilma-xildir. Bunday asarlarda xalqning boshidan kechirganlari, orzu-niyatlari va hayoti aks ettirilgan. Xalq musiqa ijodida ikki ovozli va ko'p ovozli asarlar ham uchraydi. Lekin bunday asarlarda nechta ovoz bo'lishidan qat'i nazar asosiy kuy yo'llanmasi barcha tovushlarning qo'shilib eshutilishidan tashkil topadi.

TRANSPOZITSIYA

Kompozitor musiqiy asar yaratmoqchi bo'lar ekan bu asar mazmuniga eshutilishi va pardalari mos tushadigan tonalliklarni tanlaydi. Lekin bu bilan birga barcha musiqiy asarlarning dastlabki tonalligidan pastga yoki yuqoriga qarab istalgan biror tonallikka ko'chirish mumkin. Musiqaviy asar yoki kuyning biror tonalligidan boshqa bir tonallikka ko'chirilishi **transpozitsiya** deyiladi. Ashulachilar bu transpozitsiyaga juda ko'p murojaat etadilar. Har bir qo'shiqni o'z ovozigacha moslab xilma-xil tonda ijro etadilar. Transpozitsiyaning uchta usuli mavjud:

- 1) mazkur intervalda o'zgarish yasash;
- 2) kalit belgilarini o'zgartirish;
- 3) kalitning o'zini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1-usulda oldin transpozitsiya qilinadigan asarni tonalligi aniqlanadi.

2-usulda **xramatik yarim** ton yuqoriga, yarim ton pastga qarab transpozitsiya qilinadi.

3-usulda shundan iboratki, unda ikki nota yo'lida yangi kalit tanlanib original tonallik tonikasidan yozilaveradi.

DIEZ TONALLIKLARNI ANIQLASH

Musiqada ishlatiladigan alteratsiya belgilaridan biri diez belgisidir. Bu belgi o'z joylashish tarkibiga ko'ra birinchi belgi nota chizig'ining beshinchi yo'lga qo'yilib, bu belgi qo'yilgan lad, sol major ladi deb ataladi. Diez belgisi 2 ta bo'lsa fa va do notasiga qo'yiladi va bu tonallik re major tonalligi deb ataladi.

3 talik diez belgisi so'l notasiga qo'yiladi va bu tonallik la major deb ataladi.

4 talik diez belgisi re notasiga qo'yiladi va bu mi major tonalligi deb ataladi.

5 talik diez belgisi la notasiga qo'yiladi va bu si major tonalligi deb ataladi.
6 talik diez belgisi si notasiga qo'yiladi va do diez major ladi deyiladi.

O'ZBEK XALQ CHOLG'U TARIXIDAN

Musiqiy cholg'ular qadim-qadimdan merosdir. Ular ko'p asrlik tarixga ega bo'lib har birining o'ziga xos jihatlari mavjud. Musiqiy cholg'u asboblari qadim-qadimdan yetib kelmoqda, ularning har birining tarixini alohida rivoyat va qissalar shaklida uchratishimiz mumkin. Har bir cholg'u asboblari o'sha xalqning madaniyatini ko'rishimiz mumkin. Cholg'u asboblari qadim-qadimdan bizgacha yetib kelmoqda va ko'plab asrlardan o'tib takomillashib bormoqda. O'rta asrlarga kelib ilk bor al-Farobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh ali Changiy singari mutafakkirlarning risolalarida cholg'u asboblari tarixida ilmiy jihatdan o'z ifodasini topgan. Ajdodlari-miz yozib qoldirgan asarlar tufayli cholg'u asboblarning kelib chiqishi haqida ma'lumotlarni va hozirgi kungacha rivojlanishini bilish imkoniyatiga egamiz. Bunda ilm ahli musiqiy cholg'ularni nazariy tomondan ta'riflagan bo'lsa, adabiyot va san'at ahli esa ularning amaliy tadbig'i hayotidan gapiradi. Umuman olganda, o'rta asr mutafakkirlariga xos bo'lgan estetik dunyoqarashga mansub falsafiylik, mushohadaviylik, fikrga o'ta nozik urg'u berish xususiyati san'at sohasida, xususan musiqiy cholg'ular sohasida yaqqol aks etadi.


O'ZBEKISTON XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING MAXSUS FAN SIFATIDA O'RGANILISHI

O'zbek xalq cholg'ulari maxsus fan sifatida 2 yo'nalish bo'yicha rivojlanadi:

- 1) an'anaviy cholg'u asboblarni o'rganish;
- 2) cholg'ularning rekonstruksiya va keyingi takomillashuvi.

Markaziy Osiyo musiqa madaniyati qadim zamonlardan bir ovozli an'anaviy ijrochilar yo'nalishiga asoslangan bo'lib unda asosan maqom ijrochiligi, bastakorlik ijodiyoti hamda folklor ijodiyoti o'rin tutgan. Ushbu soha faoliyatini quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- 1) ishlanishi va umumlashtirilishi;
- 2) doira uchun yangi musiqiy nota sistemasining yaratilishi;
- 3) cholg'ularda mutlaq so'zning harorati va orkestrning qaror topishi jamoani birlashtirish imkonini beradi;
- 4) qayta ishlangan xalq kuylaridan tashqari rekonstruksiya qilingan xalq cholg'u jamoalari uchun O'zbekiston kompozitorlari tomonidan maxsus yaratilgan yangi ijro dasturlari shakllandi.



MUNDARIJA

KIRISH	3
Musiqa to'g'risidagi tushunchalar.	4
Tovush qatori, asosiy pog'onalar, Oktavalar	4
Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz, yarimta va butun ton, Hosila pog'onalar va ularning nomlari	4
Nota yozuvi, cho'zimi, uning belgilanishi, nota yo'li	5
Musiqiy kalitlar	5
Alteratsiya belgilari (diez, bemoldan tashqari)	5
Musiqiy pauza va uning qo'llanilishi	6
Tovushlarni harfiy sistema bo'yicha yozilishi	6
Ritm va Metr	7
Musiqaviy aksent (zarb)	7
Metr, o'lchov, takt, tekst chizig'i, taktola	7
Oddiy metrlar va o'lchovlar.	8
Murakkab metr va o'lchovlar.	8
Aralash metrlar va o'lchovlar.	8
Sinkopa	8
Temp	8
Dirijorlik qoidalari.	9
Musiqiy intervallar.	9
Intervallarning son va sifat miqdori	9
Orttirilgan va kamaytirilgan intervallar	10
Ohangdosh va noohangdosh intervallar	10
Kossanas va dissanas	10
Turg'un tovushlar, ularning yechilishi va lad.	10
Intervallarning aylanishi.	11
Tarkibli intervallar	11
Garmonik va melodik major	11
Minor ladi. Uning pog'onalari va xususiyatlari	11
Nomdosh tonalliklar	12
Xalq musiqasi lادلari	12
Musiqa asarida kuyning ahamiyati.	12
Transpozitsiya	12
Diez tonalliklarni aniqlash	12
O'zbek xalq cholg'u tarixidan	13
O'zbekiston xalq cholg'u asboblarning maxsus fan sifatida o'rganilishi	13

DILSHOD FAYZULLAYEVICH RAXMATULLAYEV

MUSIQA NAZARIYASI

o'quv qo'llanma

Muharrir: *M. Tursunova*
Musahhih: *M. Turdiyeva*
Dizayner sahifalovchi: *E. Muratov*

«Faylasuflar» nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №255, 16.11.2012.
Bosishga ruxsat etildi 05.02.2014. «Uz-Times» garniturası. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. Bosma tabog'i 1,75. Nashr hisob tabog'i 2,0. Adadi 93 nusxa. Buyurtma №__.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.